

IX-XII ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA ILM-FAN VA TAFAKKUR TARAQQIYOTI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673943>

Sharobiddinov Sherzodbek Shuxratbek o'g'li

sharobiddinov1993@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-1001-6923>

Namangan davlat pedagogika instituti,
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va tafakkur sohalarida yuz bergan yuksalish jarayonlari tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo allomalari yaratgan boy ilmiy merosning jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta'siri va bugungi kunda ularni o'rganishning dolzarbligi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, falsafa, allomalar, tarix, Avesto, diniy ilm va falsafa, g'oyalar, tafakkur, ilmiy meros, ilmiy taraqqiyot, tarixiy muhit.

Annotation: this article analyzes the processes of Ascension that took place in the fields of Science and thought in Central Asia in the 9th–12th centuries. The influence of the rich scientific heritage created by the Central Asian allomas on the development of world civilization and the relevance of their study today are highlighted.

Keywords: Central Asia, philosophy, allomas, history, Avesto, Religious Science and philosophy, ideas, thinking, scientific heritage, scientific progress, historical environment.

KIRISH

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo tarixida "Ilm-fan va tafakkur gullagan davr" sifatida ajralib turadi. Bu davr islom sivilizatsiyasining eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, ilm-fan, madaniyat va tafakkur sohalarida salmoqli yutuqlarga erishilgan. Movarounnahr, Xuroson va unga qo'shni hududlar o'zining yuksak ilmiy salohiyati bilan ajralib turgan. Bu yerda shakllangan ilmiy markazlar faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham tan olingan. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va diniy bag'rikenglik ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti uchun qulay zamin yaratdi. Bu maqolada ushbu davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkur, yetuk olimlar faoliyati va ularning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Bu davrda Movarounnahr, Xuroson va boshqa mintaqalarda ilmiy muhit rivojlanib, ko'plab olimlar dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolani yozishda tarixiy-solishtirma va tahliliy usullar asos qilib olindi. Asosiy manba sifatida o'rta asr olimlari yozgan asarlar, zamonaviy tarixchilar va sharqshunoslar tadqiqotlari, shuningdek, kutubxona fondlarida saqlanayotgan ilmiy manbalar o'rganildi. Har bir olimning faoliyati u yashagan tarixiy muhit bilan

bogʻlanib, ularning asarlari mazmuni, ilmiy yondashuvi va metodologiyasi asosida tahlil qilindi. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Ibn Sinoning “Al-qonun fit-tib” kabi asardan keng tahlillarda foydalanildi.

Shuningdek, ilmiy merosning keyingi asrlarga taʼsiri va uni bugungi kun ilmiy taraqqiyotidagi oʻrni ham yoritildi. Maqolada tarixiy manbalar, olimlar asarlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida tayyorlandi. Ilmiy-tarixiy yondashuv orqali olimlar faoliyati, ularning ilmiy yutuqlari va mintaqadagi umumiy tafakkur rivoji tahlil qilindi.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo allomalari nafaqat oʻz davrining, balki keyingi asrlarning ham ilm-fan taraqqiyotiga taʼsir koʻrsatgan. Ularning asarlari Yevropa ilmiy uygʻonish davrida lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropa olimlariga ilhom manbai boʻlgan. Ilmiy tafakkurda tajriba, kuzatuv va mantiqiy xulosa chiqarish metodlari asosida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy meros nafaqat oʻz davrida, balki keyingi asrlarda ham katta ahamiyatga ega boʻlgan. Ularning ishlari faqat nazariy asosda emas, balki amaliy jihatdan ham mustahkam edi. Masalan, Ibn Sinoning kasalliklar tasnifi va dorivor oʻsimliklar haqidagi tahlillari bugungi zamonaviy tibbiyotda ham qisman dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Beruniyning ilmiy metodologiyasi — tajriba, kuzatuv va aniqlikni birlashtirishga asoslangan. Bu yondashuv keyinchalik Yevropada ilmiy inqilob asoslariga taʼsir koʻrsatgan. Forobiyning siyosiy-falsafiy qarashlari esa Gʻarb falsafasining rivojiga taʼsir etgan. Ayniqsa, uning “Ideal jamiyat” gʻoyasi Platonning “Davlat” asari bilan bir qatorda oʻrganilgan.

Bu olimlarning asarlarida ilm-fan, axloq, siyosat va diniy qarashlar uygʻunlashgan boʻlib, ular tafakkur tarixida noyob hodisa sanaladi. Shu sababli Markaziy Osiyo ilmiy maktablari Sharq va Gʻarbni bogʻlovchi muhim intellektual koʻpriikka aylangan.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Abu Nasr Forobiy (873-950) – musulmon Sharqida Arastudan keyin “ikkinchi ustoz” unvoniga muyassar boʻlgan yirik mutafakkir va alloma hisoblanadi. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub boʻlib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarining dolzarb masalalarini tahlil qilishga bagʻishlangan. Mutafakkir olamni ikki koʻrinishda: «Vujudu vojib» (Alloh) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «vujudu vojib» tufayli yashash huquqiga ega boʻladi. Ular oʻzaro bir-biri bilan sababiy tarzda bogʻlanadi. Sababsiz oqibat boʻlmaganidek, oqibatsiz sabab ham boʻlmaydi, deydi Forobiy.

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning tabiatni oʻrganishdagi hizmati kattadir. Alloma

jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma — xil olamlar tug'risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan. Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor.

Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir.

Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir.

Bilish sezgilar yetkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib hizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov — tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashyolarning muhim jihatlari o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimning «Shifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

Ibn Sino Zakariyo ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi. Masalan, alloma ular ko'magida xastaning holati, kelajakda kutilayotgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, inson va atrof-muhit o'zaro munosabati muammolarini hal etishga urinadi. Mutafakkir o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi tug'risida qiziqarli G'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning qashshoq

bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

XULOSA

IX-XII asrlar Markaziy Osiyosida ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Bu davrda yashagan olimlarning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ilmiy merosni chuqur o'rganish va uni zamonaviy ilm-fan bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifadir.

Markaziy Osiyoda ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti butun insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Bu davrda yashagan allomalar – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy kabi olimlar o'zlarining chuqur ilmlari, keng dunyoqarashi va ilmiy uslublari bilan nafaqat o'z zamonasini, balki keyingi asrlar tafakkurini ham yoritgan.

Masalan, Ibn Sinoning tibbiyotga oid ilmlari bilan Yevropa XVII asrgacha foydalanib kelinganligi ajdodlarimizning ilm-fandagi o'rni qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning ilmiy merosi bugungi kunda ham chuqur o'rganilmoqda va zamonaviy ilm-fanning rivojiga xizmat qilmoqda. Ilmiy taraqqiyotda tarixiy ildizlarni anglash, milliy g'urur va intellektual merosni qadrlash bugungi kun yoshlari uchun ham dolzarb vazifadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2001, 225-b.
2. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асари. – Т.: Ўзбекистон, 1991.- 68 б.
3. Sh, Sharobiddinov Sh. "Yangi O'zbekiston yoshlarini ma'naviy yuksalishida vorislikning ahamiyati." *Философия и право* 28.2 (2024): 145-148.
4. Sherzodbek Sharobiddinov, (2022). THE PROBLEM OF SUCCESSION IN THE FORMATION OF YOUTH SPIRITUALITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(12), 36–40. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-12-07>
5. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLAT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
6. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG 'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
7. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO 'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 8-jild.